

"CAN" VA "COULD" MODAL FE'LLARINING ISHLATILISHI

Tojimurodova Khurshida Rashidovna

Student of Termiz state pedagogical institute

tojimurodovaxurshida@gmail.com

Annotatsiya: Ingliz tili grammatikasida modal fe'llar muhim o'rinn tutadi. Ushbu fe'llar gapning ma'nosini aniqlashtirish, talab, iltimos, imkoniyat yoki ehtimolni ifodalashda qo'llaniladi. "Can" va "could" modal fe'llari bu fe'llarning eng ko'p qo'llaniladiganlaridan bo'lib, ularning ishlatilishida nozik ma'nolar mavjud. Ushbu maqola "can" va "could" fe'llarining ishlatilishi, ularning ma'nosi va qo'llanish o'rinlarini ilmiy tahlil qilishga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: can, could, modal fe'l, iltimos, taklif, imkoniyat, yordamchi fe'l

Abstract: Modal verbs play an important role in English grammar. These verbs are used to clarify the meaning of the sentence, to express a request, a request, a possibility or a possibility. The modal verbs "can" and "could" are among the most commonly used of these verbs, and their usage has subtle meanings. This article is dedicated to the scientific analysis of the use of the verbs "can" and "could", their meaning and places of application.

Key words: can, could, modal verb, please, offer, opportunity, auxiliary verb

Аннотация: Модальные глаголы играют важную роль в грамматике английского языка. Эти глаголы используются для уточнения смысла предложения, для выражения просьбы, просьбы, возможности или возможности. Модальные глаголы «can» и «could» являются одними из наиболее часто используемых из этих глаголов, и их использование имеет тонкий смысл. Данная статья посвящена научному анализу употребления глаголов «can» и «could», их значению и местам применения.

Ключевые слова: can, could, модальный глагол, пожалуйста, предложите, возможность, вспомогательный глагол.

Kirish:

Modal fe'llar ingliz tilida asosiy fe'lga qo'shimcha ma'no yuklab, gapdagi ma'noni kengaytiradi yoki aniqroq qiladi. Ular asosan yordamchi fe'l sifatida ishlatiladi va kelgusi harakat yoki holat haqida qo'shimcha axborot beradi. Modal fe'llar vaqt shakllariga ega bo'lmaydi va odatda "to" infinitive bilan foydalanilmaydi. Shuningdek, modal fe'llar asosiy fe'l bilan birgalikda gapda qo'shma kesim bo'lib keladi.

"Can" modal fe'li hozirgi yoki umumiyl vaqtini ifodalash uchun ishlatiladi. U asosan quyidagi holatlarda ishlatiladi:



• Imkoniyat va qobiliyatni ifodalash: "I can swim." (Men suza olaman.)

• Ruxsat berish: "You can leave now." (Siz endi ketishingiz mumkin.)

• Ilmiy haqiqat yoki tabiiy qonuniyatlar: "Water can freeze at 0°C." (Suv 0°C da muzlashi mumkin.)

"Could" modal fe'li esa "can" fe'lining o'tgan zamondagi shakli sifatida ishlataladi, lekin u hozirgi va kelgusi zamonda ham ishlatalishi mumkin. "Could" quyidagi holatlarda qo'llaniladi:

• O'tmishdagi imkoniyat yoki qobiliyat: "I could swim when I was five." (Men besh yoshimda suza olardim.)

• Ruxsat berishning muloyim shakli yoki iltimos: "Could you please pass the salt?" (Tuzni uzatib yubora olasizmi, iltimos?)

• Shubha yoki ehtimol: "It could rain later." (Keyinroq yomg'ir yog'ishi mumkin.)

"Can" va "could" fe'llari o'zaro bog'liq bo'lsa-da, ular turli vaziyatlarda turlicha ma'nolarni ifodalaydi. "Can" hozirgi va kelasi zamonni ifodalaydi, "could" esa o'tgan zamon yoki noaniqlikni ifodalaydi. Misol uchun:

• Hozirgi zamon: "I can play the piano." (Men pianino chala olaman.)

• O'tmish: "I could play the piano when I was young." (Men yoshligimda pianino chalolardim.)

"Could" so'zi "can" ga nisbatan ehtimollikni pasaytiradi yoki ruxsat yoki imkoniyatni noaniqroq qiladi. Masalan:

• "I can help you." (Men sizga yordam bera olaman.) – bu to'liq ishonchni bildiradi.

• "I could help you." (Men sizga yordam bera olardim.) – bu esa ehtimollikni yoki muloyimlikni bildiradi.

Ruxsat so'rashda "could" so'zi "can" so'ziga qaraganda muloyimroq va adabiyroq shaklni bildiradi. Misol:

• "Can I borrow your book?" (Sizning kitobingizni olishim mumkinmi?)

• "Could I borrow your book?" (Sizning kitobingizni olishim mumkinmi?) – bu muloyimroq so'rovni ifodalaydi.

Kundalik muloqotda "can" va "could" fe'llari juda keng qo'llaniladi. O'quvchilarga ushbu fe'llarni o'rgatishda ular ko'p ishlataladigan gaplar, iltimos va so'rovlardan ustida ko'proq mashq qilishlari lozim. Misollar:

• "Can you help me?" (Siz menga yordam bera olasizmi?)

• "Could you tell me the time?" (Siz menga vaqtini aytib bera olasizmi?)

Ilmiy yozuvlarda ham "can" va "could" fe'llari ko'p ishlataladi, ayniqsa, nazariy ehtimollarni ifodalashda. Misol:

• "This process can result in faster growth." (Bu jarayon tezroq o'sishga olib kelishi mumkin.)

• "These results could indicate a new discovery." (Ushbu natijalar yangi kashfiyotni ko'rsatishi mumkin.)

"Can" modal fe'li hozirgi zamonda 3-shaxs birlikda ("he", "she", "it" bilan) -s qo'shimchasini olmaydi. Masalan:

• "He can cook." (U pishira oladi.)

"Can" fe'li Perfect infinitiv bilan kelib(can+have+P.P.), bo'lishsiz va so'roq gaplarda ishlatiladi va suhbatdosh gapi rayotgan, haqiqatda sodir bo'lgan ish harakatning bo'lishi mumkin emasligini ifodalaydi. Masalan:

• "He can not have done it." (U buni qilgan bo'lishi mumkin emas.)

• "She can not have said it." (Buni u aytmagan bo'lishi kerak.)

Xulosa:

"Can" va "could" modal fe'llarining o'ziga xos ma'nolari va qo'llanish joylari mavjud bo'lib, ularni to'g'ri ishlatish o'quvchining ingliz tili bo'yicha bilimi va muloqot qobiliyatini oshiradi. Ushbu maqolada ushbu fe'llarning ishlatilish holatlari tahlil qilinib, ularning amaliy qo'llanilishidagi farqlar yoritildi. To'g'ri foydalanishni o'zlashtirish uchun talabalar muntazam ravishda mashqlar bajarishlari va muloqot jarayonida ushbu fe'llarni qo'llashlari lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.G'apporov, R.Qosimova. Ingliz tili grammatikasi. -T.:, Turon-Iqbol, 2010. - 23-25-b.